

TIL O'RGANISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA O'ZLASHTIRISH USULLARI

O'. Xurramov ¹*Ilmiy rahbar: Sattorova Dilrabo Ikrambayevna**Annotatsiya:*

Ushbu maqolada til o'rganishda qanday qilib yaxshi natijalarga erishish, innovatsion yondashuvlardan foydalanish, o'zlashtirish usullar to'g'ri tanlash va o'zimiz uchun eng qulay yo'llarini yaratish haqida ma'lumotlar berilgan. Yangi tillarni o'rganish o'qishda va ish jarayonida bizga ko'pgina imkoniyatlarni beradi. Shuningdek, ushbu maqolada hozirgi kunda til o'rganuvchilarda uchraydigan asosiy muammolar va ularning ba'zi yechimlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: til o'rganish, innovatsion yondashuvlar, me'todlar, o'zlashtirish, yangi usullar, malaka, yangicha ta'lim.

Yangi tillarni o'rganish barcha davrlarda ham insonlar uchun qiziqarli va murakkab mashg'ulotlardan biri bo'lib kelgan. Ammo hozir tilga e'tibor oldingiga qaraganda ancha o'sgan. Chunki xalqimizda "Til bilgan - el biladi!" degan maqol mavjud. Qolaversa, davlatimiz rahbari ham horijiy tillarga yuqori e'tibor berib, oliy va o'rta - maxsus ta'lim dargohlarida yangi til o'rganish uchun katta miqdorda mablag' ajratib, yaxshi sharoit va qulayliklar yaratib bermoqda. Shu bilan birgalikda o'qituvchilarning til bilish darajasini aniqlash orqali unga qo'shimcha miqdorda pul to'lanib borishi ham tilga bo'lgan e'tiborni oshirib yubormoqda.

Ko'pchilik yoshlar tilni yaxshiroq o'rganib horijiy davlatlarga o'qish, ishlash va sayohat uchun ketmoqda. Hozirgi vaqtda yoshlarning eng o'rganishni xohlaydigan tili bu -ingliz tili. Chunki ingliz tili dunyodaning rasmiy tili bo'lib, dunyoda 1 milliardga yaqin odamlar bu tilda suhbatlashishadi. Zamonaviy axborot-texnologiya vositalari, qurilmalar, kitoblar va kinolardan tortib barcha narsalarni, insonlarning ularni yaxshiroq tushunishi uchun dastlab ingliz tilida yaratiladi yoki shu tilga tarjima qilinadi.

Tilga bo'lgan yuqori talab tufayli endi malakali kadrlarga har doimgiga qaraganda ehtiyoj ko'proq bo'ladi. Shu tufayli biz ham bo'lajak o'qituvchilar sifatida tilni yaxshiroq o'rganish uchun yangicha me'tod va uslublardan foydalanib, til o'rganuvchi insonlarga tilni yaxshiroq tushuntirishga harakat qilyapmiz.

Biz o'qishdan tashqari, maktab amaliyotiga jalb qilinganmiz. O'qishimizning bir qismini davlat maktablarida o'qituvchilarga dars o'tish jarayonida yordam beramiz. Biz dars davomida har bir o'quvchini kuzatib, uning o'zlashtirish darajasini ko'rib chiqamiz va o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarga alohida to'xtalib, ularni ham boshqalardek o'rganishini ta'minlaymiz. Xususan o'zim ham, bolalar ingliz tilini samarali o'rganishi uchun darslarni interaktiv va o'yin shaklida tashkil qilish juda muhim deb hisoblayman. Buning uchun bir qancha o'yinlarni tavsiya qilaman:

Flashcard o'yinlar: (1) Bu o'yin bolalarning so'z boyligini oshirishga va ularning tilga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda yordam beradi. O'yin shartlari quyidagicha:

Doskaga hayvonlar, o'simlik, mevalar kabilarning rasmlari yopishtiriladi. Boshqa tomonda esa uning inglizcha nomi yozilgan bo'ladi. Har bir o'quvchi ularni to'g'risini topishi kerak. Topgan o'quvchilar mukofotlanadi, topolmaganlarga esa yana takrorlash vazifasi beriladi. Bu o'yin orqali uning so'z boyligini va tilga bo'lgan qiziqishini orttirish mumkin.

Zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanish (2).

Biz yaxshi bilamizki, maktab yoshidagi bola diqqatni bir narsaga qaratib uzoq muddat turolmaydi. Shuning uchun uning qiziqishlarini inobatga olgan holda multimedia vositalaridan to'g'ri foydalanilsa yaxshi natijaga erishish mumkin. Bazan mavzuga aloqador bo'lgan birorta multfilmni elektron doska orqali o'quvchilarga ko'rsatilsa, ularning bilimini va qiziqishini orttirish mumkin va ko'rib bo'lgandan so'ng ular ishlatgan ba'zi so'zlarni yoki dialoglarni takrorlash ularning nutqini ancha rivojlantiradi.

Voyaga yetgan odamlar yoki oliy ta'lim muassasi talabalari uchun interaktiv me'todlar. Bu bilamizki, bu yoshdagi odamlarga tilni o'rgatish osonroq kechadi. Ularga to'g'ri me'todlarni bera olsak, ular mustaqil o'rganishi ham mumkin. Ammo bu me'tod va usullar aniq prinsiplar asosida shakllangan bo'lsagina natija berishi mumkin.

Voyaga yetgan insonlar uchun tilni har xil dasturlar orqali o'rgatish ancha samarali va oson. Chunki hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar juda yaxshi rivojlangan, sun'iy intellekt va unga asoslangan har xil

¹ Xurramov O'rol Muhammad o'g'li, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

dasturlar juda ko'p. Masalan, Duolingo dasturini olaylik. Bu dastur har xil yoshdagi insonlarning turli xil tillarni mustaqil o'rganish uchun yaratilgan. Bu dasturda har kuni yarim soat vaqt sarflab tilni yaxshi o'rganishingiz mumkin va bu dastur mutlaqo bepul.

Tilni kurslar orqali o'rganish. Ko'pchilik yoshlar tilni o'quv markazlari ,onlayn va offline tarzida o'rganishadi .Bu juda yaxshi natija .Bu jarayonda ular haqiqiy muhitni his qilishadi va bilimlarini mustahkamlashadi.

Bu yoshdagi odamlar uchun yangicha me'todlar ham mavjud. Ular dastlab tilning barcha qoidalari o'rganishi kerak (yoki qisman) va bu bilimlari orqali o'zlari qiziqqan sohaga bog'lashi kerak. Masalan, ba'zi yoshlar musiqa tinglashni yoqtirishadi, ba'zilar kino yoki video tomosha qilishni yoqtirishadi va boshqalar esa kitob o'qishni. Hammaning o'z qiziqishlari mavjud .Agar siz qiziqishlaringizni maqsadlaringiz bilan bog'lasangiz ,uni uzoq vaqt zerikmasdan davom ettirishingiz mumkin. Kitob o'qimoqchi bo'lsangiz, uni ingliz tilida o'qing. Musiqa eshitmoqchi yoki kino tomosha qilmoqchi bo'lsangiz ham. Bunda siz yaxshi natijalarga erishishingiz mumkin. Dastlab qiynalasiz keyin o'rganasiz. Har kuni kichik qadamlar tashlasangiz ham odat shakllanadi. Kichik odatlar esa vaqt o'tishi bilan katta natijalarni olib keladi. (3)

Til o'rganish jarayonida uchrab turadigan muammolar. Ba'zan til o'rganishda turli xil muammolar ham uchrab turadi. Masalan: yaqinda bir o'quvchi tilning qiyinligidan shikoyat qilib keldi. "Men ancha vaqtdan beri tilni o'rganib kelaman. Ammo hozir ham mustaqil gaplasha olmayman. Ba'zan hayajon ,ba'zan esa bilim yetishmay qoladi. Ko'pincha esa zerikib diqqatimni ham bir joyga jamlay olmayman. Ba'zan esa shunchaki taslim bo'lib ,bu tilni o'rganish men uchun emas deb til o'rganishni to'xtatib qo'ygim ham keladi !" Men esa unga shunday javob berdim: Biz bajarayotgan har qanday ish oson emas .Har qanday sohada ham qiyinchiliklar bo'ladi. Bularni sabr va qanoat bilan bajarish esa sizga yuqori natijalarni beradi. Odam qila olmaydigan ish yo'q. Sizning muammoingiz yechim esa quyidagicha : Birinchidan, siz qiziqishingizni til bilan bog'lamaqchi .Shu tufayli sizda zerikish mavjud, zerikkaningiz sababli esa diqqatingizni ham bir joyga jamlay olmaysiz. Qiziqishlaringizni til bilan bog'lang. Kitob o'qish, musiqa tinglash yoki kino tomosha qilish. Ikkinchidan esa sizga noto'g'ri me'todlar orqali dars o'tishgan .Shu sababli sizda bilim yetishmasligi bilan bog'liq muammolar mavjud .Agar siz shu tavsiyalarga amal qilsangiz natijangiz ham yaxshi bo'ladi deb javob berdim. Shundan keyin u harakatlarini o'zgartirib ,ma'lum muddatdan keyin yaxshi natijaga ega bo'ldi.

Ikkinchi muammo: Internetda va dunyoda ma'lumot va o'qituvchilar ko'pligi orqali ma'lumotlarning chalkashligi. Ba'zi til o'rganuvchilarda shunday muammo ham bo'lib turadi. Buning yechimi ham oddiy va samarali. Bitta o'qituvchini tanlab olish kerak va uning me'todlari va kitoblaridan foydalanish kerak. Chunki hamma bir manzilni har xil tarzda bosib o'tadi va bosib o'tgan masofani turlicha eslashadi. Kimdir metroda, kimdir taksida, kimdir esa piyoda ular 3 xil taassurotga ega bo'lishadi va bularning hammasi ham to'g'ri. Til o'rgatuvchi o'qituvchilar ham xuddi shunaqa. Ulardan bittasini tanlash kerak va me'todlaridan foydalangan maqul.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, til o'rganish jarayoni hammada har xil kechadi. Kimdirlar uchun dastlab oson keyin esa qiyin bo'lsa ,boshqalarda uning teskarisi .Ammo shuni ayta olish mumkinki, til o'rganishda innovatsion yondashuvlar va o'zlashtirish usullarini to'g'ri tanlash juda muhim. Bu bilan siz tilni yaxshi va oson o'rganasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. *"Games for language learning" Andrew Wright, David Betteridge, Michael Buckby, 3-nashr, 2006.*
- [2]. *"How to teach English with technology" Gavin Dudeney, Nicky Hockly, 2007.*
- [3]. *"Atomic habits" James Clear, 2018.*
- [4]. *Internet manbalari.*